

**IJTIMOY HIMoya TIZIMINING SAMARADORLIGI VA MAQSADLILIGINI
TA'MINLASHNING ZARURATI**

Mirzajanova Dilnoza Abdullajonovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

**MAQOLA
MALUMOTI**

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO'ZLAR:

*ijtimoiy himoya,
samaradorlik, pensiya,
moddiy yordam,
nogironlik nafaqasi,
ijtimoiy ko'mak.*

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti sharoitida olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, ijtimoiy siyosatning ahamiyati va aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi chora-tadbirlar tahlil qilinadi. Aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlashda pensiya, nafaqa, ijtimoiy yordamlar, sog'lqni saqlash, ta'lim, va turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha davlat tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Prezident farmonlari, "Taraqqiyot strategiyasi" va boshqa dasturlar asosida aholining daromadini oshirish, ishsizlikni kamaytirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, manzilli yordam, mikrokreditlar ajratish va mahalla tizimi orqali fuqarolarga bevosita yordam ko'rsatish ijtimoiy siyosatning asosiy yo'nalishiga aylangan. Shuningdek, "Nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish" bo'yicha 66 ta chora-tadbir belgilangan bo'lib, ular ijtimoiy tenglik, imkoniyatlar yaratuvchanligi va inson huquqlarini ta'minlashga qaratilgan. Mazkur islohotlar xalq farovonligini oshirish, jamiyatda ijtimoiy

*barqarorlikni ta'minlash va adolatli rivojlanishga
erishishga xizmat qilmoqda..*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar markazida ijtimoiy siyosat turadi. O'ta muhim hisoblangani bois ular nafaqat ijtimoiy jihatdan, balki iqtisodiy sohalarning rivojlanishi, ishlab chiqarish va iste'mol doirasining kengayishi hamda aholi daromadlarining oshishi uchun konseptual ahamiyat kasb etadi. Izchil yuritilgan ijtimoiy siyosat aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga – kam ta'minlangan va nochor, yosh bolali va ko'p bolali oilalarga, qariyalarga, nogironlarga, ishsizlarga moddiy jihatdan yordam (pensiya, nafaqa, yordam pullari, reprodiktiv tibbiy yordam) ko'rsatilishigagina emas, balki ularning turmush tarzi yaxshilanishi va farovonlanishiga ham olib keladi.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "...biz ijtimoiy sohada aholi salomatligi, onalik va bolalikni muhofaza qilish, dori vositalari bilan ishonchli ta'minlash, jismoniy baquvvat va ma'naviy jihatdan sog'lom avlodni kamol toptirish masalalariga alohida ustuvor ahamiyat bermoqdamiz" (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlari"ga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi.- "Ishonch" gazetasi. 2017 y., 17 yanvar).

Jamiyatningumumiyligi farovonligini, gumanitarlashtirish darajasini oshirish va inson huquqlarini himoya qilish, fuqarolarning mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash, aholining kam ta'minlangan qatlamlariga yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlash: bolalar, onalar, keksalar, yetimlar, nogironlar, qochoqlar, ishsizlar va boshqalarni manfaatlari orqali boshqarish ijtimoiy siyosatning asosiy vazifalari va muhim tamoyillaridan hisoblanadi.

Aholini ijtimoiy himoyalashda va turmush tarzini oshirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish va pul daromadlarini ko'paytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, aholining kam ta'minlangan qismi daromad manbaiga ega bo'lishi uchun o'z-o'zini band qilish maqsadida davlat tomonidan ularga mikrokreditlar ajratish va bu toifadagi har bir oilaga bir boshdan qoramol, qo'y, echki, tegishlicha tovuq berish ham zaruriy masalaga aylanmoqda. Bunda banklar tomonidan kreditlash va bank-moliya sohasidagi faoliyatlar muhim ahamiyatga ega.

E'tirof etish kerakki, mintaqalar kesimida aholining kam ta'minlangan qismi, ularni ijtimoiy himoyalash masalalari statistik jihatdan yetarli darajada o'rganilmagan. Shu sababli ham hududlarda aholining kam ta'minlangan qismiga ijtimoiy yordam ko'rsatish jarayonida mavjud bo'lgan nazariy va amaliy muammolarni hal etish va statistik jihatdan baholash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida 2022 yil 28 yanvardagi Respublika Prezidentining PF-60-sonli farmoni qabul qilindi. Bunda 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" ishlab chiqildi (www.Lex.uz). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi ning 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni).

Taraqqiyot strategiyasida aholiga majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, kam ta'minlangan oilalar sonini va aholining daromadlari bo'yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish yuzasidan to'rtinchı ustuvor vazifa – ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishibegilandi (1-rasm).

**AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMI VA TURMUSH
DARAJASINI FAROVONLASHTIRISHNING USTUVOR
YO'NALISHLARI**

Byudjet muassasalari xodimlarining
ish haqi, pensiya, stipendiya va
ijtimoiy nafaqalar hajmini inflyatsiya
sur'atlaridan yuqori miqdorda izchil
oshirish

Yangi ish o'rinalarini yaratish hamda
aholining, eng avvalo, o'rta maxsus va
oliy o'quv muassasalari bitiruvchilari
bandligini ta'minlash, mehnat bozori
mutanosibligini va infratuzilmasi
rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik
darajasini kamaytirish

Mehnatga layoqatli aholining mehnat va
tadbirkorlik faolligini to'liq amalga
oshirish uchun sharoitlar yaratish, ish kuchi
sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni
kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va
malakasini oshirish tizimini kengaytirish

O'rta-maxsus, kasb-hunar va oliy
ta'lim muassasalari bitiruvchilarini
ishga joylashtirish hamda xususiy
tadbirkorlik sohasiga jalg etish

Aholini ijtimoiy himoya
qilish va sog'liqni saqlash
tizimini takomillashtirish,
xotin-qizlarning ijtimoiy-
siyosiy faolligini oshirish

Aholining, eng avvalo, yosh
oilalar, eskirgan uylarda
yashab kelayotgan fuqarolar
va uy-joy sharoitini
yaxshilashga muhtoj boshqa
fuqarolarning yashash
sharoitini imtiyozli shartlarda
ipoteka kreditlari ajratish
hamda aholi uchun shahar va
qishloq joylarida arzon uylar
qurish orqali yanada
yaxshilash

Yoshlarni ijtimoiy himoya
qilish, yosh oilalar uchun
munosib uy-joy va ijtimoiy-
maishiy sharoitlarni yaratish

**1-rasm. Taraqqiyot strategiyasida belgilangan aholini ijtimoiy himoyalash
tizimi va turmush darajasini farovonlashtirishning ustuvor yo'nalishlari**

Manba: muallifishlanmasi

“Taraqqiyot strategiyasi”ning xalq farovonligini ta’minlash, davlat va jamiyat qurilishi tizimini yanada takomillashtirish, aholi bandligi va real daromadlarini oshirish, ular uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ta’lim va sog‘lijni saqlash tizimini isloq qilish, barkamol yosh avlodni ijtimoiy-ma’naviy qo‘llab qo‘vvatlashga qaratilgan bo‘lib, respublikamizning barcha hududlarida amalda o‘z aksini topmoqda.

Ijtimoiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, ishonchli ijtimoiy kafolatlarni yaratish, mehnatning manfaatli bo‘lishini kuchaytirish islohotlarni o‘tkazish uchun mustahkam ijtimoiy tayanch, ular muqarrarligining garovi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois o‘ta muhim shunday muammolarni bartaraf etishda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining o‘rni va ahamiyatini bundan buyon ham butun choralar bilan oshirish, ularni zarur moddiy vositalar bilan yetarli darajada mustahkamlash lozim. Davlat ushbu masalani yechishda mahalla (qishloq) yig‘inlariga turli chora-tadbirlari bilan ko‘maklashmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarda aholining ijtimoiy qatlamlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish borasida keng miqyosli ishlar amalga oshirildi. Keksalar va nogironlarning turmush darajasi va sifatini oshirishga, pensiya ta’minoti va ijtimoiy madad tizimini takomillashtirishga, tizimli sog‘lomashtirishni tashkil etishga yo‘naltirilgan bir qator davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Yurtimizda shu tariqa har tomonlama puxta huquqiy asosga ega bo‘lgan ishonchli ijtimoiy himoya tizimi shakllandи va u amalda o‘zini oqlamoqda. Davlat byudjetidan aholini ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha ajratiladigan moliyaviy mablag‘lar miqdorini anchagina oshirish ko‘zda tutildi. Byudjetda belgilangan xarajatlardan tashqari, hukumatimiz tomonidan har yili yolg‘iz keksalar, pensioner hamda nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirishga qaratilgan maxsus qarorlar qabul qilindi.

Mamlakatimizda keksalar, pensionerlar, nogironlar va imkoniyati cheklangan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish tizimi ham yaratilib, aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ularning hayot sifatini yaxshilash, tibbiy-ijtimoiy yordam berish tizimini yanada takomillashtirish, ta’lim olish va ishga joylashishida ularga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida mamlakat Prezidenti tomonidan 2017 yil 1 avgustda “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoyishi (www.lex.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 y 1 avgustdagи “Nogironlarni

davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.), shuningdek, 2017 yil 1 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5270-sonli farmoni (www.lex.uz/Pages/Getpage). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF – 5270-sonli farmoni.) qabul qilindi. PF-5270-sonli farmonga muvofiq "nogiron" atamasio'rniiga "Nogironligi bo'lgan shaxs"dan foydalanish taklif qilinmoqda. Unda shuningdek, BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini ratifikatsiya qilish zarurligi qayd etildi. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun asosida esa "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi qonun ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida kelgusi yilda qo'shimcha ravishda qator chora-tadbirlar va loyihibar qabul qilinishi ham ko'zda tutilgan.

Ishlab chiqiladigan yangi qonunga ko'ra:

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilmagan yo'lovchi transportini xarid qilish taqiqlanadi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan, shu jumladan, qayta jihozlash imkoniyati bilan avtotransport vositalarini ishlab chiqarish boshlanadi;

- nogironlik berish va nogironlik bo'yicha pensiya to'lash tartibi mezonlari qayta ko'rib chiqiladi. Bu yo'nalishda xalqaro standartlarga o'tish amalga oshirilishi kerak;

- oliy ta'lif muassasalarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun kvotalar joriy qilinadi (www.norma.uz/ma'lumotlariga. 2017 yil 1 dekabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni.);

Xullas, bu maqsaddagi loyiha nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish va ularning huquq va erkinliklari kafolatlarini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini o'z ichiga oladi. U 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha 66 ta chora-tadbir amalga oshirilishini ko'zda tutadi:

I – nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifati va darajasini oshirish;

II – nogironlikni profilaktika qilish, nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam va ijtimoiy reabilitatsiyaning samaradorligini oshirish;

III – nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalash, ularni talab bo'lgan kasblarga o'qitish tartibini takomillashtirish, nogironligi bo'lgan shaxslarni maxsus kasbiy tayyorlash va yangi kasblarga qayta tayyorlash, shuningdek, ularni ishga joylashtirishga yordam berish;

IV-tibbiy-ijtimoiy muassasalarini moddiy-texnik jihozlashni yaxshilash, nogironligi bo‘lgan shaxslar foydalanishi uchun imkoniyati bo‘lgan va qulay muhitni ta’minlash.

O‘zbekistonning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tish konsepsiyasida yangi shakllantirilayotgan iqtisodiyotning asosiy belgilarini ilmiy izohlagan holda, ularni shakllantirish yo‘llari yoritib berildi. Mazkur konsepsiya ijtimoiy sohalarni rivojlantirish va aholining keng qatlamlarini, eng avvalo, nochor guruuhlarini ijtimoiy himoyalashni ta’minlash chora-tadbirlarini ko‘rish zarur, deb qaraladi. Chunki, mamlakatdagi ijtimoiy barqarorlikka davlat ijtimoiy siyosatining yo‘nalishlari orqali erishilishi ma’lum.

Har bir davlatda ijtimoiy siyosatning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ularning natijalari ham turlicha ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda esa olib borilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning quyidagi tomonlariga alohida e’tibor berib kelinmoqda:

- iqtisodiyotning ijtimoiy sohalarini, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- ta’limni, sog‘liqni saqlashni, sportni rivojlantirish bo‘yicha dasturlarni amalda tatbiq etish;
- ishsizlikka qarshi kurashish, mehnatga qobiliyatllarni ish joylari bilan ta’minlash muammolarini yechish;
- kam ta’minlangan oilalarni kuchli ijtimoiy himoyalash.

O‘zbekiston Respublikasi davlat ijtimoiy ta’minoti - fuqarolarini keksayganida, kasallanganida, mehnatga layoqatlilagini qisman yoki butunlay yo‘qotganda, boquvchisini yo‘qotganida, shuningdek, bolali oilalarni moddiy ta’minlash va ularga xizmat ko‘rsatish davlat tizimidir.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomisheskix resheniy./usheb./O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /usheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.S. Prinsiples of sorporate finanse. MsGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and esonomis modeling of the system of interregional industrial sooperation as a sontrol objest. Proseedings of the 7th International Sonferense on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of sesurity of esonomis and esologisal

systems in the sountries of the sentral Asian Region. International Sonferense on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.

6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsyu ushenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogisheskie texnologii. 2025. – s. 581-587.

7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq risklarni sug‘urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.

8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomisheskoe razvitiye i analiz, 2024. - s. 338-345.

9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug‘urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.

10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o ‘tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O‘zbekistonda tadbirkorlik tavakkalshiliklari sug‘urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.

12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.

13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.

14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.

15. Publis Finanse: A Sontemporary Applisation of Theory to Polisy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Sengage Learning

16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati.–T.: “Akademnashr”, 2011.– 472 b.